TA'LIMGA TANQID VA TAKLIF

Abbos Pusurmanov
Angren shahar 35- maktab

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng har sohada bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ko'plab yutuqlarga erishdi. Yangiliklar qilindi. Bajarilgan ishlarning ko'pi o'z natijalarini bergan bo'lsada, ayrimlari o'zini oqlamadi.

Bugungi kunda bu sohaga e'tibor yanada kuchaydi. Vazirdan boshlab XTB mudiri, maktab direktorlari, oddiy o'qituvchi-murabbiylar hamma- hamma ta'lim tizimimizni yangi bosqichga olib chiqish, ta'lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilashga urinishayapdi. Shaxsan davlat rahbarining o'zi bir qator chiqishlarida qamrovi bo'yicha aytish mumkinki eng katta bo'lgan Xalq ta'limi vazirligi faoliyatiga tanqidiy nazar tashlab, yangi-yangi tahlillarni qilishga davat etayabdi. Ortiqcha qog'ozbozliklarni yig'ishtirib, uning o'rniga haqiqiy sifatni yaxshilash kerakligi talab etilyabdi. Bu esa buyuk kelajagimiz uchun eng to'g'ri yo'ldir !

Xo'sh ta'lim sifatini oshirish uchun nima qilish kerak? Bu oddiy. Hamma ishni maktabdan boshlashimiz kerak. Ya'ni har bir o'quvchi, o'qituvchi va ota-onada shaxsiy mas'uliyat hissini shakllantirishimiz kerak. Albatta bunga siz hayron bo'layotgan bo'lishingiz mumkin " Bizda mas'uliyat yo'qmidi ? " deb. Mening fikrimcha "yo'q", bo'lsa ham juda oz foizda. Bunga isbot natijalarimizda. Masalan men ancha yillardan beri o'quv fanlarini o'zlashtira olmay sinfdan qolgan o'quvchilarni bilmayman. Hamma o'zlashtirayabdi go'yo. Yaxshi o'qigani ham, o'qimagani ham. Lekin maktabni bitirgan o'quvchilarimiz fanlardan oddiy savollarga javob bera olishmayabdi ko'p hollarda. Bu muommoga esa hech kim shaxsan javob bermayabdi. Natijada bitiruvchilarimiz na oliy o'quv yurtiga kira olayapdi na biror ishni qoyillatayabdi. Bahona tayyor "ish yo'q". Keyin esa hech qanaqa bilimsiz, hunarsiz, tilni bilmasdan Rossiya kabi chet davlatlarga yo'l olmoqda yoshlarimiz. Uyog'i sizga ma'lum. O'zbekistonda mavjud maktablarning asosiy qismida A, B, V guruhlar mavjud (masalan 6 a, 6 b, 6 v). O'sha har bir guruhda a'lochi, yaxshi, va bilimi qoniqarli o'quvchilar bor. Bir so'z bilan aytganda bilim darajasi (inglizchada level) bir xil emas, bir xil bo'lmaydi ham, xatto bir sinfda o'qiydigan a'lochi va qoniqarli bilim darajaga ega bo'lgan o'quvchilar saviyasi o'rtasidagi tafovut juda katta. Bu holat ta'lim sifatini tushiradigan eng asosoiy omillardan biri. Bunday holatlarda o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham dars jarayonida qiynalishadi. Xullas gap nima haqida borayotganini tushungan bo'lsangiz kerak.

Endi taklifga o'tsam. Deylik bir maktabda o'sha 6- sinfda o'qiydiganlar soni 75 nafar deb olsak, ularni fanlardan umumiy bilim darajasiga qarab A, B, V (A- a'lochilar, B- yaxshi, V- qoniqarli) guruhlarga ajratilsa t'alim sifatiga juda katta ijobiy ta'sir o'tkazgan bo'lardik. Biz bunday holatni bugungi til o'rgatayotgan o'quv markazlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Albatta bunday yo'l tutilishiga qarshilar ham yetarlicha topiladi. Masalan farzandi sustroq o'qiydigan ota- onalar. Ular farzandlari " kuchli " sinfda o'qishlarini xohlashadi, lekin odatda bunday ota-onalarning ko'pi farzandining bilim darajasi, uy vazifalarni bajarayotganligiga e'tibor qaratishmaydi (real holat). Agar yuqoridagi taklif amalga oshsa, har bir ota-ona farzandiga, uning kelajagiga mas'uliyatni yanada oshiradi deb o'ylayman.

Xa aytgancha o'quvchilar yil yakunida yillik o'zlashtirishiga qarab, keyingi yili qaysi toifadagi guruhda o'qishini bilib olishlari mumkin. Bu esa o'quvchilarga o'quv yili davomida to'xtamay bilim olishlariga ishtiyoq beradi.

Xulosa o'rnida sizga shuni eslatib o'tmoqchimanki, haqiqiy bilimli inson har qachon har qanday joyda xor bo'lmaydi. Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov o'z chiqishlarining birida aytganidek, endi biz chet davlatlarga "qora ishchi" emas, balki yuksak bilimga, zamonaviy kasblarga ega bo'lgan, chet tillarini o'z ona tilidek biladigan mutaxassislarni yetkazib berishimiz zarur.